



The last attempt by the Umayyads to preserve Central Asia – the campaigns of Nasr Ibn Sayyar to Ferghana

Erkinjon MAKHMUDOV¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 15 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

Ferghana,
Arab Khalifat,
Arab invasion,
coalition,
Nasr ibn Sayyor,
Sharik,
Nilan,
Alutar,
Arslan tarkhan,
vice,
vassal,
battle of Talas,
Nothern kingdom,
Southern kingdom.

ABSTRACT

This article analyzes the military campaign of Nasr ibn Sayyar ibn Rafi' ibn Harri ibn Rabi'ah al-Kinani al-Laysi a renowned Arab military commander, prominent statesman, and head of the Mudar tribe in Khorasan who took part in Qutayba ibn Muslim's expeditions in Transoxiana, including the Fergana Valley. It also examines the subsequent political developments that followed these campaigns.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss6-pp409-413>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Umaviylarning Markaziy Osiyoni saqlab qolishidagi so'nggi urinish – Nasr Ibn Sayyorning Farg'onaga yurishlar

ANNOTATSIYA

Mashhur arab harbiy qo'mondoni va yirik davlat arbobi, Xurosondagi arablarning mudar qabilasining boshlig'i; Qutayba ibn Muslimning Movarounnahrda harbiy yurishlarida ishtirok etgan Nasr ibn Sayyor ibn Rofi' ibn Harriy ibn Rabi'a al-Kinoniy al-Laysiyning Farg'ona vodiysiga harbiy yurishi, undan keying davrdagi siyosiy jarayonlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:

Farg'ona,
arab xalifati,
arab bosqinchiligi,
koalitsiya,
Nasr ibn Sayyor,
Sharik,
Nilon,
Alutar,

¹ Senior Lecturer, Department of World History, Fergana State University. E-mail: erkinmahmudov@gmail.com

Arslon tarxon,
noib,
vassalom,
Talas jangi,
Shimoliy podshohlik,
Janubiy podshohlik.

Последняя попытка Омейядов сохранить Центральную Азию – поход Насра Ибн Сайяра в Фергану

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Фергана,
Арабский халифат,
арабское вторжение,
коалиция,
Наср ибн Сайёр,
Шарик,
Нилан,
Алутар,
Арслан тархан,
порок,
вассал,
битва при Таласе,
Северное царство,
Южное царство.

Анализируется военный поход Насра ибн Сайяра ибн Рафи' ибн Харри ибн Раби'а аль-Кинани аль-Лайси, известного арабского военачальника и крупного государственного деятеля, главы племени мудар арабов в Хорасане, участвовавшего в военных походах Кутайбы ибн Муслима в Мавераннахр, в Ферганскую долину, а также последующие политические процессы.

KIRISH

Nasr ibn Sayyor ibn Rofi' ibn Harriy ibn Rabi'a al-Kinoniy al-Laysiy (131/748-49-yilda vafot etgan) – mashhur arab harbiy qo'mondoni va yirik davlat arbobi, Xurosondagi arablarning mudar qabilasining boshlig'i; Qutayba ibn Muslimning Movarounnahrda harbiy yurishlari- da ishtirok etdi va bu yerda ko'p boyliklar qo'lga kiritdi. Hishom ibn 'Abd al-Malik (105–125/724–743-yillarda hukm surgan) davrida xiroj devonining boshlig'i, 110/728-29-yilda esa Samarqand hokimi etib tayin- landi. 121–131/738–748-yillarda avval Balx hokimi, keyin butun Xuro- son voliysi bo'ldi, Marv shahrida yashagan. Uning hukmronligi davrida Xurosonda Abu Muslim boshchiligidagi 'Abbosiy harakati avj oldi va g'alaba qozondi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xurosonga Nasr ibn Sayyor noib etib tayinlangandan keyin, uning dastlabki ishi Movarounnahrning amalda mustaqil bo'lgan hududlarini qaytadan bo'ysundirish bo'ldi. Chunki, xalifalikning sharqiy chegarasi bo'lgan Farg'onada Movarounnahrning boshqa hududlaridan farqli ravishda islom dinining mavqei mustahkam emas edi. Tarixiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, arablar Farg'onaga kirib kelgan davrdan to VIII asr oxirigacha bo'lgan vaqt davomida ham Farg'ona hukmdorlari islom dinini qabul qilmadi [10: 7; 2: 26]. Farg'ona hukmdorlarining islom dinini qabul qilmaganligi bu yerda arablarning ta'siri yuqori bo'lmaganligidan dalolat beradi. Shu sababli Nasr ibn Sayyor Xurosonda o'z mavqegini mustahkamlab olgach, Choch va Farg'ona hududlariga harbiy yurish tashkillashtiradi. Ibn al-Asirda keltirilishicha, Nasr ibn Sayyor farg'onaliklarga hujum qiladi va minglab farg'onaliklarni asir oladi [8: 198]. Ammo bu Nasr ibn Sayyorning Farg'onaga qilgan asosiy yurishi emas edi. Chunki, Nasr asosiy e'tiborni Chochdagi arablarga qarshi to'plangan kuchlarga qaratayotgan edi. Ehtimol Nasr

Farg'onaning chegara hududlariga bosqinchilik yurishini uyushtirib ortga qaytgandir. Sababi manbalarda Nasrning hujumi paytida Farg'ona hukmdori yoki uning vorisi bilan to'qnashganligi qayd etilmagan [8: 199].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nasrning Farg'onaga qilgan navbatdagi yurishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bunda arab qo'shinlari Quva shahrigacha yetib borishadi. Farg'ona hukmdorining vorisi Nilan (Balaz) bilan bo'lgan bir necha janglarda arablar g'alaba qozonadi. Farg'onaliklar Nasrga sulh tuzishni taklif qilishadi. Bunga javoban Nasr ularga tinchlik sulhini yuboradi. "Tarixi Tabariy" va "Al-Komil fit-Tarix" kabi manbalarda Nasrning Farg'onaga bu yurishi batafsil tasvirlangan. Jumladan, farg'onaliklar Nasrning kelishini oldindan bilib, otlari va oziq-ovqatlarni yoqib yubordilar. Nasr Farg'ona hokimining valiahdiga qarshi yurish qilib, uni bir qal'ada qamal qiladi. Valiahd musulmonlarni g'aflatda qoldirib, to'satdan hujum qiladi va hayvonlarni qo'lga kiritadi. Nasr esa shundan keyin Temim o'g'illarini Muhammad al-Musanna boshchiligida bir guruh jangchilar bilan jo'natadi. Farg'onaliklar musulmonlarning otlarini o'lja olishgan edi. Musulmonlar qo'ldan boy berilgan otlarining bir qismini o'zlariga qaytarib olgandan so'ng, farg'onaliklarga qarshi hujumga o'tadi va ularni mag'lubiyatga uchratdilar. Arablar Farg'ona hukmdori vorisiga yordam bergan dehqonni qatl etadilar [8: 199]. Dehqonning o'g'li bilan birgalikda ba'zi kishilarni asir oladilar. Nasr dehqonning o'g'lini ham qatl etishni buyuradi. Xurosondagi Dihiston viloyatining turkiy hukmdori Sulteginning katta o'g'li Sulaymon ibn Abu-s-Sariy 121/738-39-yilda Xuroson amiri Nasr ibn Sayyor (121-131/738-748-yillarda hukm surgan) kotibining o'rinbosari bo'lgan. O'sha yilda u sulh ahdnomasi bilan Farg'ona hukmdorining oldiga yuborilgan.

Farg'ona hokimi Sulaymon orqali sulh tuzish taklifi to'g'risida jo'natilgan Nasrning maktubini qabul etganligini bildirib, o'zining eng yaqin yordamchisi bo'lgan onasini Sulaymon bilan birgalikda jo'natadi. Malika (ayol) Nasr huzuriga kelgach, Nasr u bilan suhbatlashadi [8: 200].

Shunisi diqqatga sazovorki, Nilanni muarrixlar yangi hukmdor deya tilga olmaydi, balki shunchaki valiahd deb yozishadi. Demak, Nasrning bu yurishi paytida Farg'ona hukmdori Alutar vafot etgan va Nilan taxtga chiqib ulgurmagan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Yuqoridagi ikki yurish manbalarda bitta yurishning ikki bosqichi sifatida keltiriladi. Birinchi bosqichda Nasr Farg'ona chegaralaridan minglab odamlarni asir olib qaytadi. Ikkinchi yurishda arablar Farg'onaga bostirib kirib uning hukmdorini mag'lub etadi. Vodiyda arablarning mavqeini oshirish uchun 10 ming arab vodiy bo'ylab joylashtiriladi [3: 105]. 740/741 yilda esa Nasr yana Farg'onaga yurish qiladi [8: 211]. Ammo bu yurishning tafsilotlari tarixiy manbalarda qayd etilmagan.

Nasr ibn Sayyorning Farg'onaga qilgan yurishlaridan so'ng Nilan kuchsizlanib, hokimiyatga Arslon tarxon keladi [1: 490]. Nilan haqida 739-yildan so'ng tarixiy manbalarda ma'lumotlar uchramaydi. Aynan 739-yildan boshlab xitoy manbalarida Arslon tarxon haqidagi ilk ma'lumotlar uchraydi [6: 86]. Xitoy manbalarida Arslon tarxon "Asilan Dagan" shaklida tilga olinadi [2: 25; 6: 86].

Farg'onaning yangi hukmdori Arslon tarxon o'z tashqi siyosatida Tan imperiyasiga tayanadi. Ma'lumki, Farg'onadan shimolda joylashgan Talas vodiysi Turk xoqonligi g'arbiy hududlarining ma'muriy markazi bo'lib, turklar bu yerdan Chotqol tog'laridan oshib o'tib, vodiya hujum qilar edilar. Arslon tarxon o'z davlatining xavfsizligini ta'minlash maqsadida 739-yilda Talosga yurish qildi [2: 26]. Ayni vaqtda Xitoy ham bu

hududni o'ziga bo'ysundirishga harakat qilardi. Natijada Qoshg'ardagi xitoy garnizoni ko'magida Arslon tarxon Talos hokimi Tuaxuyeyysianni mag'lub qiladi. Bu voqeani Xitoy manbalari ham tasdiqlaydi. “[Imperator] Shyuanzung (712–756-yillarda taxtda o'tirgan, ismi Li Lungji) ning Kayyuan davrining 27 yilida [739] Tuaxuyeyysianni itoat qildirishga [Tang qo'shinlari bilan] hamkorlik qilgani uchun [Farg'ona] hukmdori (vang) Arslon-Tarxonga fengxua-vang (“madaniyatga intiluvchi hukmdor”) unvoni in'om etildi” [6: 86]. Arslon tarxon davrida, Tyanbao davrining 3-yilida (744) xitoyliklar ushbu davlat [Farg'ona] ga Ningyuan – “olisdagi sokinlik” deb nom berdilar [6: 86]. Yuqorida xitoy manbalaridan keltirilgan fikrlar shuni tasdiqlaydiki, Farg'ona hukmdori doimo Xitoy bilan yaqin aloqa o'rnatishga va arablarga qarshi kurashda Tan imperiyasi bilan ittifoq tuzishga intilgan. Bunga dalil sifatida Arslon tarxonning Xitoy malikasi (Xeyi)ga uylanganligi, uning vorisi Chjungje o'z o'g'li Shyuyeyuyni Xitoyga yuborib, imperatordan “xitoy urf-odatlarini o'rganish uchun” uni saroy xizmatiga qabul qilishni so'raganligini ko'rishimiz mumkin [2: 25].

749–750-yilda Movarounnahrda Ummaviylarning inqirozi sabab siyosiy vaziyat murakkablashadi. Buning natijasida turli xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan. Shunday qo'zg'olonlardan biri Sharik boshchiligidagi qo'zg'olon edi. Bu qo'zg'olon hijriy

131 milodiy 748/749-yili Farg'onada boshlanadi [4: 268]. Ularning asosiy g'oyasi Abu Tolib avlodlarining hokimiyatga chiqishini qo'llab-quvvatlash hisoblangan. Ehtimol, ummaviylarning hukmronligi davrida ularning ta'qibidan qochib Abu Tolib avlodlarining tarafdorlari turli chekka o'lkalar, jumladan, Farg'onadan siyosiy boshpana topgandir. Sharik yuqoridagi talab bilan xalqqa murojaat qiladi. Natijada uning atrofida katta qo'shin jam bo'ladi [4: 268]. Abu Muslim Sharikka qarshi Ziyod bin Solih boshchiligida qo'shin yuboradi. Ziyod bin Solix Amudaryo qirg'oqlariga yetganda unga buxorxudot yordamga keladi. Ular birgalikda Sharikni mag'lub etib, uning o'zi va ko'plab tarafdorlarini qatl etadilar. Sharikning boshi Abu Muslimga yuboriladi [4: 269].

VIII asrning o'rtalariga kelganda Farg'ona ixshidi va Shosh hukmdori o'rtasida munosabatlar buziladi [7: 21]. Farg'ona ixshidi xitoyliklardan yordam so'raydi. Bunga javoban Tan imperiyasi yordam sifatida katta qo'shin yuboradi. Xitoy qo'shini farg'onaliklar bilan Toshkentga bostirib kelib [7: 21], chochliklarning mol-mulkini talon-toroj qildi va mahalliy hukmdorni asir olib Xitoy poytaxti Chan'anga yuborgan. U yerda Choch hukmdori qatl etildi. Toshkent shahzodasi ittifoqchilarga qarshi Xuroson noibi Abu Muslimdan yordam so'raydi. Natijada besh kun davom etgan, ilmiy adabiyotlarda ilk o'rta asrlarning yirik jangi deya ta'riflangan “Talos jangi” bo'lib o'tadi. Jang davomida Tang qo'shinidagi Qarluq turklari xiyonat yo'liga kirib, xitoy lashkariga arablar bilan birgalikda hujum qildilar. Tan qo'shinlari qo'mondoni Gao Shanfa to'liq mag'lubiyatga uchradi. Xitoy askarlarining katta qismi o'ldirilib, faqat bir necha nafarigina omon qolgan. O'ng qanot qo'mondoni Li Siyyening yordami bilan Gao Shanfaning o'zi qochib ketishga erishdi. Chekinish yo'li tor bo'lib, ortga qaytish qiyin kechgan. Aftidan Farg'ona qo'shinlari ittifoqchi qo'shinlarning orqa tarafida joylashgan va shu sababli chekinayotgan xitoy askarlarining yo'llarini to'sib qo'ygan edilar. Li Siyye oldingi safga o'tib, jangdan omon qolgan xitoy askarlariga Farg'ona askarlarini o'ldirishni buyurdi. Natijada o'z ittifoqchilari bo'lgan farg'onalik askarlarning barchasi o'ldiriladi. Tarixiy manbalarda ushbu jangda farg'onaliklarga kim boshchilik qilganligi haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilmagan. Milodiy 744 yildan keyin Arslon tarxonning Xitoy malikasi (Xeyi) ga uylangan [6: 86] ligini inobatga olsak, Talos jangida farg'onaliklarga Arslon tarxon qo'mondonlik qilganligini taxmin qilishimiz mumkin.

751-yilda Talos daryosi bo'yida yuz bergan besh kunlik katta to'qnashuvda har ikki tarafdin qancha askar ishtirok etgani aniq emas. Lekin jangda qatnashgan Tan askarlarining o'zi 70 ming ekanligi adabiyotlarda qayd etilgan [9: 26]. Biroq, Talos jangida Tan imperiyasi tarafida turib ishtirok etgan Farg'ona qo'shini va qarluqlarni hisobga olganda qo'shinning umumiy soni 100 mingdan ortiq, deb taxmin qilish mumkin. Arab askarlarining soni ham 100 ming atrofida bo'lishi haqiqatga ancha yaqin. Chunki, arablar jang davomida yaqqol ustunlikka erisha olmadi va Qarluq turklarining arablar tarafiga o'tib ketishi kuchlar nisbatini o'zgartirib yubordi. Natijada 50 ming xitoy lashkarlari qurbon bo'ldi, 20 ming kishi asirga tushdi [5: 172].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz VIII asrlarda arab istilochilariga qarshi uzoq muddat davomida kurash olib bordilar. 748-yilda Turk xoqonligi poytaxti Suyob shahrining vayron etilishi hamda 751-yilda Talosda xitoy qo'shinlarining tor-mor qilinishi siyosiy vaziyatning arablar foydasiga o'zgarishiga olib keldi. Ular Farg'ona vodiysida ham o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qildilar. Xalifa Mansur davrida Farg'ona hukmdori Qoshg'arda yashashga va arablarga o'lpon to'lashga majbur bo'ldi. Ammo, farg'onaliklar uzoq vaqt davomida arablarning asosiy talabi – islomga o'tishni rad etdilar. Shunga qaramasdan bu yerda asta-sekinlik bilan islom dini yoyildi va shariat qonunlari qaror topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Анарбаев А. Ахсикат – столица древний Ферганы. – Ташкент: Тафаккур, 2013. – 535 с.

Бернштам А.Н. Древняя Фергана (Научно-популярный очерк). – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1951. – 45 с.

Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. – 238 с.

Саид Абдулхай бин Заххок бин Махмуд. Тарихи Гардизи. Дунёйи китоб. Бе тасхих ва мақобала Абдулхай Ҳабибий. Чопи аввал. – Техрон, 1343х. – 733 с.

Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашр., 2007. – 279 б.

Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2013. – 288 б.

Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (Полный свод истории) // Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г.Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментарии, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 559 с.

Ibnu'l Esir. Islam tarihi. El Kamil Fi't Tarih Tercumesi. / Ceviren Yunus Apaydin. – Cilt 5. – Istanbul: Turkiyat matbaacilik ve nesriyat, 1986. – 492 с.

Nesimi Y. İlk türk – islam devletleri tarihi. – Ankara, 1992. – 146 с.

The History of al-Tabari. / Translated by Carole Hillenbrand. – Vol. 26. – New York: State University of New York Press, 1989. – 300 p.